

## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 20 812,0 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 15 506,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
<b>Jami</b>	<b>20 812,0</b>	<b>102,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>3 220,6</b>	<b>140,2</b>	<b>11,4</b>	<b>15,5</b>
respublika budjeti	529,9	99,9	23,1	16,5
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	42,9	-	-	1,3
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	306,7	-	-	9,5
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	23,9	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	2 341,1	132,5	76,9	72,7
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	182,1	132,5	x	x
<b>markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>17 591,4</b>	<b>98,1</b>	<b>88,6</b>	<b>84,5</b>
korxonalar mablag'lari	2 901,4	101,8	15,9	16,5
aholi mablag'lari	1 440,3	114,6	6,9	8,2
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	13 165,6	95,8	76,8	74,8
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	1 024,3	67,1	x	x
<i>shundan:</i>				
<i>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>3 724,7</i>	<i>93,4</i>	<i>22,3</i>	<i>11,1</i>
<i>shu jumladan, mln.AQSh dollarida</i>	<i>289,8</i>	<i>36,1</i>	<i>x</i>	<i>x</i>
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	84,1	108,2	0,4	0,5

2025- yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 3 220,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 140,2 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 15,5 % ga yetdi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar





**2025- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>20 812,0</b>	<b>1 616,5</b>	<b>19 195,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
qurilish-montaj ishlari	7 281,7	1 196,7	6 085,0
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	10 933,7	357,9	10 575,8
Boshqa xarajatlar	2 596,6	61,9	2 534,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 2,3 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati ulushi 0,4 % li punktga kamayganligi va boshqa xarajatlarning ulushi 2,7 % li punktga kamayganligini ko'rsatmoqda.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 3 220,6 mlrd. so'mlik investitsiya mablag'lari kiritilib, bu ko'rsatkich jami

investitsiyalarning 15,5 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,2 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 17 591,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 84,5 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,1 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 2 901,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 13,9 % o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 1 440,3 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 6,9 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 2 341,1 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,5 % ga oshgan yoki jami investitsiyalarning ulushi 11,2 % ni tashkil etgan.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 84,1 mlrd. so'mlik mablag'lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 0,4 %), bu o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil etdi, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 13 165,5 mlrd. so'm (ulushi 63,3 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,8 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 306,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi (ulushi 1,5 %), Respublika budjeti 529,9 mlrd. so'm (ulushi 2,5 %) ushish sur'ati 99,9 %. Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga 42,9 mlrd. so'm (ulushi 0,2 %) ni tashkil etdi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar**

Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi tog'-kon sanoatiga 7 107,5 mlrd. so'm (34,2 %), elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo faoliyatiga 4 657,1 mlrd. so'm (22,3 %), ishlab chiqarish sanoatiga 2 424,1 mlrd. so'm (11,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyat turiga 2 034,0 mlrd. so'm (9,8 %), tashish va saqlashga 956,3 mlrd. so'm (4,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasiga 826,4 mlrd. so'm (4,0 %), qurilish faoliyatiga 734,1 mlrd. so'm (3,5 %), turar-joy qurilishiga 689,2 mlrd. so'm (3,3 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanishga 417,5 mlrd. so'm (2,0 %), ta'limga 196,7 mlrd. so'm (0,9 %), ulgurji va chakana savdoga 149,8 mlrd. so'm (0,7%), axborot va aloqa 68,1 mlrd. so'm (0,3 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olish xizmati turlariga 34,6 mlrd. so'm (0,2 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 22,9 mlrd. so'm (0,1 %), moliya va sug'urta faoliyatiga 7,5 mlrd. so'm (0,03 %) va boshqa faoliyat turlariga 509,2 mlrd. so'm (2,4 %) to'g'ri keldi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2024- y.	2025- y.
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami</b>	<b>20 812,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 034,0	9,6	9,8
tog'-kon sanoati	7 107,5	35,1	34,2
ishlab chiqarish sanoati	2 424,1	16,9	11,6
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	4 657,1	11,2	22,3
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	417,5	3,1	2,0
Qurilish	734,1	5,4	3,5
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	149,8	1,2	0,7
tashish va saqlash	956,2	4,6	4,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	22,9	0,3	0,1
axborot va aloqa	68,1	0,5	0,3
moliya va sug'urta faoliyati	7,5	-	0,1
ta'lim	196,7	0,3	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	826,4	2,9	4,0
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	34,6	-	0,2
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	689,2	8,1	3,3
boshqa faoliyat turlari	509,2	3,1	2,4




- Ishlab chiqarish sanoati
- Elektr, gaz bilan ta'minlash
- Tog'-kon sanoati
- Qishloq xo'jaligi
- Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya
- Qurilish
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar
- Boshqa faoliyat turlari

## 2025- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**  
(umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 14,0 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi, shu bilan birga, To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 63,3 %, Respublika byudjeti hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 2,5 % ni tashkil etadi.

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, %</i>
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>20 812,0</b>	<b>102,9</b>	<b>100,0</b>
Respublika budjeti	529,9	99,9	2,5
Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	42,8	-	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	306,7	-	1,5
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	2 341,1	132,5	11,2
Korxonalar mablag'lari	2 901,4	101,8	14,0
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	84,1	108,2	0,4
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	13 165,6	95,8	63,3
Aholi mablag'lari	1 440,3	114,6	6,9

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari 2 341,1 mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 132,5 % ni tashkil etgan.

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan  
investitsiyalar, mlrd. so'm**

	2024- y. yanvar-iyun	2025- y. yanvar- iyun	o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, % da	jami investitsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSH doll.
--	-------------------------	-----------------------------	---	---

<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>19 053,7</b>	<b>20 812,0</b>	<b>102,9</b>	<b>289 773,6</b>
-----------------------------	-----------------	-----------------	--------------	------------------

*shaharlar:*

Qarshi sh.	1 923,2	2 783,8	136,5	18 970,1
------------	---------	---------	-------	----------

Shahrisabz sh.	383,2	276,2	67,8	501,5
----------------	-------	-------	------	-------

*tumanlar:*

G'uzor	2 712,4	1 999,6	69,4	11 422,3
--------	---------	---------	------	----------

Dehqonobod	126,3	698,8	519,5	-
------------	-------	-------	-------	---

Qamashi	327,0	456,5	131,2	23 558,9
---------	-------	-------	-------	----------

Qarshi	422,2	609,2	135,7	3 009,3
--------	-------	-------	-------	---------

Koson	320,0	437,6	127,9	-
-------	-------	-------	-------	---

Kitob	473,0	500,6	99,5	6 881,2
-------	-------	-------	------	---------

Mirishkor	1 102,4	549,5	46,9	26 884,2
-----------	---------	-------	------	----------

Muborak	3 797,6	4 419,7	109,7	4 313,3
---------	---------	---------	-------	---------

Nishon	5 729,6	5 754,7	94,8	181 298,2
--------	---------	---------	------	-----------

Kasbi	391,2	379,9	91,2	12 934,6
-------	-------	-------	------	----------

Ko'kdala	193,7	376,4	182,7	-
----------	-------	-------	-------	---

Chiroqchi	283,2	252,7	83,1	-
-----------	-------	-------	------	---

Shahrisabz	385,6	903,1	220,8	-
------------	-------	-------	-------	---

Yakkabog'	483,0	413,6	80,5	-
-----------	-------	-------	------	---

**Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar**  
(2025- yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>5 691,8</b>	<b>100,6</b>
<i>shahrlar:</i>		
Qarshi sh.	9 211,6	133,9
Shahrisabz sh.	1 832,9	66,6
<i>tumanlar:</i>		
Gʻuzor	8 766,4	68,0
Dehqonobod	4 271,1	510,3
Qamashi	1 514,6	128,5
Qarshi	2 167,3	132,3
Koson	1 362,8	125,8
Kitob	1 732,6	97,7
Mirishkor	4 137,8	46,0
Muborak	46 183,1	107,4
Nishon	33 555,3	92,4
Kasbi	1 737,1	89,5
Koʻkdala	1 924,4	177,6
Chiroqchi	916,0	82,0
Shahrisabz	3 766,2	216,8
Yakkabogʻ	1 429,1	79,1

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi boʻyicha yuqori koʻrsatkichlar Muborak tumani 46 183,1 ming soʻm, bu yerda elektir energiya ishlab chiqarishdan oʻzlashtirilgan, Nishon tumani 33 555,3 ming soʻm, boʻlib bu yerda tabiiy gazni qazib olishga oʻzlashtirilgan investitsiyalar bilan bogʻliq.

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:				
		Respublika budjeti	korxonalar mablag'lari	aholi mablag'lari	xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari

<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>20 812,0</b>	<b>529,9</b>	<b>2 901,4</b>	<b>1 440,3</b>	<b>15 506,6</b>	<b>2 341,1</b>
-----------------------------	-----------------	--------------	----------------	----------------	-----------------	----------------

*shaharlar:*

Qarshi sh.	2 783,8	241,6	641,5	83,0	1 793,7	142,4
------------	---------	-------	-------	------	---------	-------

Shahrisabz sh.	276,2	15,8	35,8	71,7	150,6	-
----------------	-------	------	------	------	-------	---

*tumanlar:*

G'uzor	1 999,6	12,7	217,5	129,9	1 630,8	8,1
--------	---------	------	-------	-------	---------	-----

Dehqonobod	698,8	4,8	7,5	118,3	564,7	538,9
------------	-------	-----	-----	-------	-------	-------

Qamashi	456,5	19,5	21,9	95,9	315,5	-
---------	-------	------	------	------	-------	---

Qarshi	609,2	23,9	117,5	97,9	341,2	33,8
--------	-------	------	-------	------	-------	------

Koson	437,6	11,6	13,4	162,6	248,4	167,1
-------	-------	------	------	-------	-------	-------

Kitob	500,6	25,5	122,5	108,5	238,8	-
-------	-------	------	-------	-------	-------	---

Mirishkor	549,5	4,8	23,9	62,1	458,3	-
-----------	-------	-----	------	------	-------	---

Muborak	4 419,7	53,3	460,3	70,5	3 835,5	-
---------	---------	------	-------	------	---------	---

Nishon	5754,7	27,7	1128,0	53,5	4235,4	1195,7
--------	--------	------	--------	------	--------	--------

Kasbi	379,9	8,8	15,2	54,0	298,9	-
-------	-------	-----	------	------	-------	---

Ko'kdala	376,4	33,3	3,3	39,6	293,8	-
----------	-------	------	-----	------	-------	---

Chiroqchi	252,7	22,7	3,9	161,0	64,5	-
-----------	-------	------	-----	-------	------	---

Shahrisabz	903,1	6,8	63,6	49,1	756,1	124,2
------------	-------	-----	------	------	-------	-------

Yakkabog'	413,6	17,4	25,6	82,7	280,5	130,7
-----------	-------	------	------	------	-------	-------

davomi

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:		
		Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari


<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>20 812,0</b>	<b>42,9</b>	<b>306,7</b>	<b>84,1</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	2 783,8	5,0	-	19,0
Shahrisabz sh.	276,2	-	-	2,4
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	1 999,6	-	-	8,8
Dehqonobod	698,8	-	-	3,4
Qamashi	456,5	-	-	3,7
Qarshi	609,2	6,0	-	22,8
Koson	437,6	-	-	1,7
Kitob	500,6	-	-	5,3
Mirishkor	549,5	0,4	-	-
Muborak	4 419,7	-	-	0,2
Nishon	5 754,7	-	306,7	3,4
Kasbi	379,9	-	-	3,0
Ko'kdala	376,4	6,4	-	-
Chiroqchi	252,7	-	-	0,7
Shahrisabz	903,1	19,1	-	8,3
Yakkabog'	413,6	6,0	-	1,4

## Ijtimoiy soha obyektlarini qurish


2025- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 480,0 ming kv.m. bo'lgan 2 073 ta uy-joy qurilgan (2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,8 %) shu jumladan, qishloq joylarda 233,1 ming kv.m, 997 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 676,6 mlrd. so'mi yoki 3,2 % i turar-joy qurilishida o'zlashtirildi.

Umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida 41,6 mlrd. so'm atrofida investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 0,2 foizini tashkil qiladi.

**Qurilish faoliyati.** 2025- yilning yanvar- iyun oylarida 7 673,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Qurilish ishlari umumiy hajmining 75,3 % ni binolar va inshootlarni qurishga, 12,3 % ni fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilishga 12,4 % ni ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 67,7 % ni yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to'g'ri keladi.

**Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining  
o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**  
(umumiy hajmga nisbatan % da)



**Korxonalar turlari bo'yicha  
qurilish ishlari hajmi, mlrd.so'm**




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari**

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	274,2	249,9	511,0
o'sish sur'ati, %	132,8	120,1	117,1
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 548,3	696,3	444,1
o'sish sur'ati, %	160,3	180,8	164,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	949,9	-	-
o'sish sur'ati, %	116,1	-	-

Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 5 192,6 mlrd. so‘mni (ulushi 67,7 %) tashkil etdi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 2 481,2 mlrd. so‘mni (ulushi 32,3 %) tashkil etdi.



### Qurilish ishlari turlari bo‘yicha (jamiga nisbatan foiz hisobida)




### Yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m

	2024- yil	2025- yil	o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>7 100,3</b>	<b>7 673,8</b>	<b>102,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	1 807,1	2 128,8	112,5	27,7
Shahrisabz sh.	220,3	248,9	107,3	3,2
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	570,8	368,4	61,4	4,8
Dehqonobod	73,8	81,3	103,8	1,1

davomi

	2024- yil	2025- yil	o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Qamashi	105,0	123,7	111,2	1,6
Qarshi	346,1	450,0	123,8	5,9
Koson	338,8	379,4	106,4	4,9
Kitob	216,3	232,9	102,1	3,0
Mirishkor	52,9	65,1	116,4	0,8
Muborak	478,0	379,8	75,8	4,9
Nishon	352,9	377,8	102,2	4,9
Kasbi	89,0	98,9	105,5	1,3
Ko'kdala	56,6	62,1	104,6	0,8
Chiroqchi	269,0	312,1	110,0	4,1
Shahrisabz	224,5	256,1	108,7	3,3
Yakkabog'	190,8	206,5	102,8	2,7
Тақсимланмайдиган ҳажм	1 708,2	1 902,0	104,9	24,8



**2025- yilning yanvar-iyun oylarida  
qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘atlari**

	<i>Qurilish ishlari, mlrd. so‘m</i>	<i>Shu jumladan:</i>		
		<i>Yirik qurilish tashkilotlari</i>	<i>Kichik va mikrofirmalar</i>	<i>Norasmiy sektor</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>7 673,8</b>	<b>1 820,0</b>	<b>3 710,6</b>	<b>2 143,2</b>
shaharlar:				
Qarshi sh.	2 128,8	642,2	1 390,1	96,4
Shahrisabz sh.	248,9	29,5	150,2	69,2
tumanlar:				
G‘uzor	368,4	53,7	235,3	79,4
Dehqonobod	81,3	3,1	27,1	51,1
Qamashi	123,7	4,4	50,9	68,4
Qarshi	450,0	134,8	243,3	71,8
Koson	379,4	50,4	232,3	96,8
Kitob	232,9	46,3	100,3	86,3
Mirishkor	65,1	7,0	31,9	26,2
Muborak	379,8	247,4	107,5	24,9
Nishon	377,8	294,4	59,7	23,6
Kasbi	98,9	14,9	53,5	30,6
Ko‘kdala	62,1	0,6	53,3	8,2
Chiroqchi	312,1	105,3	92,7	114,1
Shahrisabz	256,1	24,3	190,8	41,0
Yakkabog‘	206,5	7,0	137,6	61,9
Тақсимланмайдиган ҳажм	1 902,0	154,6	554,1	1 193,3


2025- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1820,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2024- yilga nisbatan 92,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2024- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 2,8 % punktga kamayib, 18,0 % ni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga qurilish ishlari

(2025- yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻsish surʻati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 098,7</b>	<b>100,4</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	7 044,4	109,9
Shahrisabz sh.	1 651,6	105,2
<i>tumanlar:</i>		
Gʻuzor	1 614,9	60,0
Dehqonobod	497,1	102,5
Qamashi	410,5	109,3
Qarshi	1 600,9	120,3
Koson	1 181,5	103,9
Kitob	806,2	100,2
Mirishkor	490,0	114,3
Muborak	3 968,2	73,9
Nishon	2 202,8	99,3
Kasbi	452,3	103,3
Koʻkdala	317,6	101,2
Chiroqchi	1 131,3	107,5
Shahrisabz	1 067,8	106,5
Yakkabogʻ	713,6	100,8


**2025- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar turlari bo'yicha  
qurilish ishlari hajmi,  
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko'rsatkichlari Nishon tumani (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 77,9 %), Muborak tumani (ulushi 65,1 %), Chiroqchi tumanida (ulushi 33,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Qarshi shahrida 27,7 % ni, Qarshi tumanida 5,9 % ni va Muborak 4,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Ko'kdala (0,8 %), Mirishkor (0,8 %) va Dehqonobod (1,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.